

## **Iqlim o'zgarishi: global muammo OAV nigohida**

Markaziy Osiyo Mintaqaviy Ekologik markazi jurnalistlar uchun "Iqlim o'zgarishi – OAV uchun dolzarb mavzu" nomli trening tashkil qildi. "Orol dengizi havzasida iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish dasturi (CAMP4ASB)" loyihasi doirasida o'tkazilgan ushbu tadbirning maqsadi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni batafsil o'rganish, bu qiziqarli, shu bilan birga murakkab mavzuni to'g'ri va tushunarli yoritishni istaydigan jurnalistlarga ko'mak ko'rsatishdan iborat bo'ldi.

Yerda ro'y berayotgan iqlimiy o'zgarishlar inson hayot faoliyatining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda, ekotizimlar va biologik xilma-xillikka bosimni kuchaytirib, ularni xavf ostiga qo'yimoqda. Iqlim o'zgarishining boshqa yaqqol belgilarini ham kuzatish mumkin, bular – dengiz sathining ko'tarilishi, muzliklarning erishi, Yer kurrasining barcha mintaqalarida kuzatilayotgan ekstremal meteorologik hodisalar (suv toshqinlari, qurg'oqchilik va bosh.). Tabiiy ofatlar xavfining ortishi, hodisalarning misli ko'rilmagan ko'lami ham bunga dalildir.

OAVda e'lon qilinayotgan materiallarda ko'pincha anomal ob-havo, tabiiy ofatlar kabi iqlimiy o'zgarishlar oqibatlari to'g'risidagi mavzular ko'tariladi. Iqlim o'zgarishining sabablari, va eng muhimi, unga moslashish imkoniyatlari to'g'risidaga materiallar esa yetarli emas.

Treningda matbuot vakillari bu boradagi dolzarb materiallarni tushunarli va qiziqarli shaklda tayyorlash imkoniyatlari bilan tanishdilar. CAMP4ASB loyihasining xalqaro eksperti Tatyana Shauro trening ishtirokchilariga mavzuni o'quvchilar auditoriyasi va boshlang'ich ma'lumotlardan kelib chiqib yoritishning yangi usullarini to'g'risida gapirib berdi.

Shuningdek O'zgidromet va Suv xo'jaligi vazirligi ekspertlari iqlim o'zgarishi bo'yicha ilmiy asoslar to'g'risida taqdimot qildilar, O'zbekistonda GEJ vakili jurnalistlar tomonidan iqlim o'zgarishi muammolarining yoritilishi nuqtai nazaridan ushbu muammolarni hal qilish yo'llari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar berdi.

Interaktiv shaklda o'tkazilgan treningda jurnalistlar olgan bilim va ko'nikmalarini mashq qilib ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Trening doirasida OAV vakillari moslashish choralari, va aynan muqobil energetikani rivojlantirish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan ob'yektlar - O'zbekistonda quyosh qurilmalarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi bo'lgan "OftobNur" korxonasi va Toshkent viloyatining Parkent tumanida joylashgan O'zbekiston Respublikasi FAning Materialshunoslik institutida bo'ldilar. Ushbu nodir ob'yektda Quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etiladi.

Trening tashkilotchilari olingan ma'lumot va ko'nikmalar iqlim o'zgarishi muammolarini yoritishga bel bog'lagan jurnalistlar uchun foydali bo'lishiga umid bildirdilar.

## **Иқлим ўзгариши: глобал муаммо ОАВ нигоҳида**

Марказий Осиё Минтақавий Экологик маркази журналистлар учун “Иқлим ўзгариши – ОАВ учун долзарб мавзу” номли тренинг ташкил қилди. “Орол денгизи хавзасида иқлим ўзгаришига мослашиш ва унинг оқибатларини юмшатиш дастури (CAMP4ASB)” лойиҳаси доирасида ўтказилган ушбу тадбирнинг мақсади иқлим ўзгариши билан боғлиқ муаммоларни батафсил ўрганиш, бу қизиқарли, шу билан бирга мураккаб мавзунини тўғри ва тушунарли ёритишни истайдиган журналистларга кўмак кўрсатишдан иборат бўлди.

Ерда рўй бераётган иқлимий ўзгаришлар инсон ҳаёт фаолиятининг барча соҳаларига таъсир кўрсатмоқда, экотизимлар ва биологик хилма-хилликка босимни кучайтириб, уларни хавф остига қўймоқда. Иқлим ўзгаришининг бошқа яққол белгиларини ҳам кузатиш мумкин, булар – денгиз сатҳининг кўтарилиши, музликларнинг эриши, Ер қуррасининг барча минтақаларида кузатилаётган экстремал метеорологик ҳодисалар (сув тошқинлари, қурғоқчилик ва бош.). Табиий офатлар хавфининг ортиши, ҳодисаларнинг мисли кўрилмаган кўлами ҳам бунга далилдир.

ОАВда эълон қилинаётган материалларда кўпинча аномал об-ҳаво, табиий офатлар каби иқлимий ўзгаришлар оқибатлари тўғрисидаги мавзулар кўтарилади. Иқлим ўзгаришининг сабаблари, ва энг муҳими, унга мослашиш имкониятлари тўғрисидаги материаллар эса етарли эмас.

Тренингда матбуот вакиллари бу борадаги долзарб материалларни тушунарли ва қизиқарли шаклда тайёрлаш имкониятлари билан танишдилар. CAMP4ASB лойиҳасининг халқаро эксперти Татьяна Шауро тренинг иштирокчиларига мавзунини ўқувчилар аудиторияси ва бошланғич маълумотлардан келиб чиқиб ёритишнинг янги усулларини тўғрисида гапириб берди.

Шунингдек Ўзгидромет ва Сув хўжалиги вазирлиги экспертлари иқлим ўзгариши бўйича илмий асослар тўғрисида тақдирот қилдилар, Ўзбекистонда ГЭЖ вакили журналистлар томонидан иқлим ўзгариши муаммоларининг ёритилиши нуқтаи назаридан ушбу муаммоларни ҳал қилиш йўллари тўғрисида қизиқарли маълумотлар берди.

Интерактив шаклда ўтказилган тренингда журналистлар олган билим ва кўникмаларини машқ қилиб кўриш имкониятига эга бўлдилар.

Тренинг доирасида ОАВ вакиллари мослашиш чоралари, ва айнан муқобил энергетикани ривожлантириш бўйича фаолият кўрсатаётган объектларда бўлдилар. Булар – Ўзбекистонда қуёш қурилмаларини ишлаб чиқариш бўйича етакчи бўлган “OftobNur” корхонаси ва Тошкент вилоятининг Паркент туманида жойлашган Ўзбекистон Республикаси ФАнинг Материалшунослик институти. Ушбу нодир объектда Қуёш энергиясидан фойдаланиш имкониятлари тадқиқ этилади.

Тренинг ташкилотчилари олинган маълумот ва кўникмалар иқлим ўзгариши муаммоларини ёритишга бел боғлаган журналистлар учун фойдали бўлишига умид билдирдилар.

## **Изменение климата: глобальная проблема в фокусе СМИ**

Региональный Экологический центр Центральной Азии организовал тренинг для журналистов на тему «Изменение климата – актуальная тема для СМИ». Цель мероприятия, проведенного в рамках проекта «Программа по адаптации к изменению климата и смягчению его последствий в бассейне Аральского моря (CAMP4ASB)» оказать помощь и поддержку журналистам, желающим узнать подробнее о проблемах, связанных с изменением климата, рассказать как правильно и увлекательно освещать эту важную и непростую тему.

Климатические изменения, происходящие на Земле, затрагивают и оказывают воздействие на все сферы жизнедеятельности людей. Усиливают давление на экосистемы и биоразнообразие, ставя под угрозу их выживание. Сохраняются и другие явные признаки изменения климата, включая повышение уровня моря, таяние морского льда и ледников, и на всех континентах присутствуют разрушительные следы экстремальных метеорологических явлений. Увеличение риска природных катастроф является последствием изменения климата и имеет глобальный характер и беспрецедентные масштабы.

В материалах СМИ чаще всего прорабатываются такие темы как погодные аномалии и стихийные бедствия, что является следствием климатических изменений. А материалов, раскрывающих причину, и самое важное широкие возможности адаптации в условиях изменения климата, не хватает.

На тренинге творческие представители прессы были ознакомлены с возможностями подготовки актуальных материалов в доступной и увлекательной форме. Международный консультант проекта CAMP4ASB Шауро Татьяна рассказала участникам о новых подходах в освещении данной темы, в зависимости от читательской аудитории и исходной информации.

Также в ходе тренинга эксперты Узгидромета, Минводхоза представили научную базу по теме «Изменение климата», представитель ГЭФ в Узбекистане сделал презентацию о путях решения проблемы изменения климата в Центральной Азии в аспекте освещения этого вопроса журналистами.

Тренинг прошел в интерактивной форме, и журналисты имели возможность поупражняться в полученных навыках.

В рамках тренинга журналисты посетили объекты, деятельность которых напрямую связана с адаптационными мерами, а именно с развитием альтернативной энергетики. Это предприятие “OftobNur”, лидер по производству солнечных установок в Узбекистане и Институт материаловедения АН Республики Узбекистан, расположенный в Паркентском районе Ташкентской области. На этом уникальном объекте изучаются возможности получения энергии от Солнца.

Организаторы тренинга выразили надежду, что полученная информация будет полезна для журналистов, желающих освещать проблемы изменения климата.















